

“Butunjahon Yer kuni” dagi muvaffaqiyat



26.04.2023

“Butunjahon Yer kuni” dagi muvaffaqiyat

Sogʻlom dunyoqarashni shakllantirish mutaxassislardan bilim va salohiyat talab qiladi. Yurtimizda yoshlarni davlat tomonidan har tomonlama qoʻllab-quvvatlash va ragʻbatlantirish borasida olib borilayotgan islohotlar dunyo jamoatchiligi tomonidan eʼtirof etilmoqda. Joriy yilning 22-aprel “Butunjahon yer kuni”ga bagʻishlab "Sayyoramizga sarmoya kiriting!" shiori ostida 18-21-aprel kunlari “GeoScience” ilmiy maqolalar, “GeoMovie” videoroliklar, “GeoMarafon” jamoalar bellashuvi va “GeoPicasso” rasmlar tanlovlari oʻtkazildi. Mazkur tadbirning “GeoPicasso” rasmlar talovida “Gidravlika va gidroinformatika” kafedrasida birinchi bosqich magistranti, “Evrika” iqtidorli talabalar toʻgaragi vakili Ubaydillayeva Dilshodaxon Arslonbek qizi, kafedra mudiri, t.f.d., professor A.Arifjanov rahbarligida oʻzining “Yerni aslidek asraylik” mavzusidagi oʻz ijodiy ishi bilan birinchi oʻrnini egallab, sertifikat va 2,5 million soʻm miqdorida pul mukofoti bilan taqdirlandi.

Universitet matbuot xizmati